TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMI QARORI

2021 - yil 2 - dekabr 246-10-134-Q/21 Ohangaron tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yil davomida ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunlariga, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qaroriga va Ohangaron tuman adliya bo’limining 2021 yil 29 noyabrdagi 02/21-son normatv-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o’tkazish to’g’risida”gi xulosasasiga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2022 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qarori rahbarlik va ijro uchun

qabul qilinsin.

2.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022 yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari SH.Azamatov, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Uralov), tuman korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021 yil yakunlaridan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi, 2022 yilning 10 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimida ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etishsin.

4. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari SH.Azamatov, tuman korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shahslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari SH.Azamatov, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Uralov), tuman korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari aholi bandligiga ko‘maklashish markazi yo‘llanmasi bilan yuborilgan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar”ni asosiy ish o‘rinlariga ishga qabul qilinsinlar.

6. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari SH.Azamatov, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Uralov) ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori muvofiq javobgarlikka tortilib, jarima solishga sabab bo‘lishi eslatilsin.

7. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari SH.Azamatov, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Uralov) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish

to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-son buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilgan, ijtimoiy extiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida eng kam oylik ish haqining 2 barabari miqdorida haq to‘lash ishlarini tashkil etsin.

8. Mazkur qaror ijro uchun besh kun muddatda kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazilsin.

9. Ohangaron tuman adliya bo’limining 2021 yil 19 noyabrdagi 1-10/1-7/229-son “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to’g’risida”gi taqdimnomasiga asosan Ohangaron tuman hokimining 2021 yil 17 noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yil davomida ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori “Normatv-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi Qonuning 25-27-moddalariga muvofiq huquqiy ekspertizadan o’tkazilmasdan qabul qilinganligi sababli bekor qilinsin.

10. Ushbu qaror ijrosini bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatovga yuklatilsin.

Туман ҳокими **А. Абдуллаев**

Оҳангарон туман ҳокимининг
2021 йил 2 декабрдаги
246-10-134-Q/21-сон қарорига
1-илова

Ohangaron tumanidagi tashkilotlar bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarini belgilash to'g'risida 2022 yil uchun YO'NALISHLAR KESIMIDA TAKLIFLAR

T/P	tuman, shaxar nomi	xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilot nomi	INN (Stir)	tashkilot ma'lumotlari	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifasi						
					jami	o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar	umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar	nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar	odam savdosi qurbonlari
Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni)		3	5	1	4	2					
2	Ohangaron t	Ohangaron tuman "SUVOQOVA" ishlab chikarish sho'ba korxonasi	200463559	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	67						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		2	3		1		
3	Ohangaron t	"OHANGARON TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" unitar korxonasi	200608573	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	226						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		4	7	1	3	2	
4	Ohangaron t	Ohangaron tuman tibbiyot birlashmasi	200609524	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	1299						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		12	29		3	1	
5	Ohangaron t	Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "ANGREN SHAKAR" xorijiy korxonasi	207155445	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	776						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		2	8	3			
6	Ohangaron t	"EYVALEK MAXSUS TEMIR BETON" aksiyadorlik jamiyati	200608454	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	890						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		6	22	2	3	3	
7	Ohangaron t	DSENM	200465190	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	55						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		2	2		1		
8	Ohangaron t	Ohangaron tuman toza xudud davlat unitar korxonasi	304938624	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	48						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		2			1	2	
9	Ohangaron t	"LAZIZ" ma'suliyati cheklangan jamiyati	201321805	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	148						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		5	8			2	
10	Ohangaron t	Ohangaron tumani irrigatsiya bo'limi	207264738	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	31						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		1	2				
11	Ohangaron t	Agrobank Ohangaron filali	201752450	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	38						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		1	2				
12	Ohangaron t	Xalk banki Ohangaron filiali	200465341	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	48						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			3				
13	Ohangaron t	Gidromontaj unitar korxonasi	200608620	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	111						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		3	5	1		2	
14	Ohangaron t	Ohangaron tumani veternariya bo'limi	200609438	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	26						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			2				
15	Ohangaron t	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914553	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	29						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		2					
16	Ohangaron t	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914560	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	29						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			2				
17	Ohangaron t	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914584	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	22						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			2				
18	Ohangaron t	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914649	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	31						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			3				
19	Ohangaron t	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914839	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	28						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		1	2				
20	Ohangaron t	40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914854	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	22						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			2				
21	Ohangaron t	Ohangaron tuman maktabgacha ta'lim bo'limi	207267384	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	22						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		1	1				
22	Ohangaron t	2-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207014042	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	58						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni		1	3				
23	Ohangaron t	8-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207017480	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	31						
				Kelgusi 2022 yilga zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni			3				
1	Ohangaron t	OHANGARON TUMANI OBODONLASHTIRISH BO'LIMI	207061230	*2021 yil 01 iyul xolatiga ko'ra nechta xodim ishlamoqda (kishi)*	162						

		JAMI			4197	48	116	8	16	14	